O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2024 - yil 21 - may 176-8-117-Q/24 Termiz tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida yoshlarni sportga jalb qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 29-apreldagi 243-sonli hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 17-maydagi 409-8-0-Q/24-sonli qarorlarining ijrosi haqida

Tumanda aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularni sportga jalb qilish tizimini takomillashtirish, olis va chekka hududlarda sport inshootlari tarmog‘ini kengaytirish hamda ularning quvvatidan samarali foydalanish orqali sportning ommaviyligini yanada oshirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo viloyatida yoshlarni sportga jalb qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 29-apreldagi 243-sonli hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 17-maydagi 409-8-0-Q/24-sonli qarorlarining ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Surxondaryo

viloyatida yoshlarni sportga jalb qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 29-arpreldagi 243-sonli hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2024-yil 17-maydagi 409-8-0-Q/24-sonli qarorlari (keyingi o‘rinlarda - Qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorlar bilan:

2024-2026-yillarda Surxondaryo viloyatida ommaviy va professional sportni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilanganligi;

2024-2026-yillarda Surxondaryo viloyatida yoshlarni sportga keng jalb, qilish hamda sport infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanganligi;

Surxondaryo viloyatida yoshlarni sportga keng jalb qilish hamda sport infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi amalga oshirilishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha ishchi guruh tarkibi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tumanda 2024-2026-yillarda yoshlarni sportga keng jalb qilish hamda sport infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev):

2024/2025-o‘quv yili boshlanishiga qadar tumandagi barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sport to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘ysin.

Bunda:

jismoniy tarbiyaning innovatsion usullarini qo‘llash orqali bolalar va o‘smirlarni jismoniy tarbiya hamda ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb etib borish tizimini joriy etsin;

bolalarda sport bilan shug‘ullanishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda ularning muayyan ko‘rsatkichlari asosida qaysi sport bilan shug‘ullanishini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqsin.

5. Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablari jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi uchun zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta’minlanadi.

6. Tuman Sport maktabi (R.Abrayev) tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamda Yoslar ishlari tuman bo‘limi bilab birgalikda har yili aholini, shu jumladan, yoshlarni sportga keng jalb qilishga yo‘naltirilgan quyidagi sport tadbirlarini o‘tkazib borsin:

yoshlar o‘rtasida sport turlari bo‘yicha “Hokim kubogi”, “Rahbar

kubogi”, xotin-qizlar o‘rtasida “Ayollar spartakiadasi”;

“Kurash – bizning milliy boyligimiz”, “O‘zbek polvoni” shiori ostida kurash musobaqalari;

umumiy o‘rta ta’lim maktablarining sport klublari o‘rtasida sportning futbol, basketbol, voleybol, qo‘l to‘pi, boks, yengil atletika (marafon, estafeta, disk, nayza va yadro uloqtirish) turlari bo‘yicha ikki bosqichli (tuman/shahar, viloyat) sport musobaqalarining tuman bosqichlarini tashkil qilsin.

7. Tuman hokimining o‘rinbosari R.Togayev tuman Sport maktabi (R.Abrayev) bilan birgalikda:

ikki oy muddatda tumandagi mavjud stadionlarni xatlovdan o‘tkazish orqali ulardagi yengil atletika yo‘laklarini kapital ta’mirlash bo‘yicha 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash uchun Viloyat hokimligiga kiritsin;

2024-yil 1-avgustga qadar sport inshootlarida nogironligi bo‘lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga sport bilan shug‘ullanish uchun sharoitlar yaratsin hamda ushbu inshootlarni maxsus sport jihozlari bilan ta’minlasin;

joylarda, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda aholi o‘rtasida sport musobaqalari, sport aksiyalari, havaskorlik sport musobaqalarini tizimli tashkil etib borish choralarini ko‘rsin.

11. “Janub quyoshi” gazetasi muxarririyati (D.Normurodov)ga tuman Sport maktabi (R.Abrayev) bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini yoritishga oid maqolalar chop etish tavsiya etilsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari R.Togayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimining

2024-yil “___”-maydagi

_____-sonli qaroriga

ilova

Termiz tumanda 2024-2026 yillarda yoshlarni sportga keng jalb qilish hamda sport infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Moliyalashtirish banbas	Ijro uchun mas’ullar
1.	Yoshlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish orqali aniqlangan sport turlari bilan shug‘ullanish istagini bildirgan yoshlarni mavjud sport inshootlarida shug‘ullanishga jalb qilinishini yo‘lga qo‘yish.	1. To‘liq quvvat bilan ishlamayotgan davlat mulki hisoblangan sport inshootlarini xatlovdan o‘tkazish. 2. Sport bilan shug‘ullanish istagini bildirgan yoshlar uchun to‘liq quvvat bilan ishlamayotgan sport inshootlarida sport bilan shug‘ullanish imkoniyatini yaratish.	2024-yil may 2024-yil davomida	-	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev)
2.	Aholi o‘rtasida sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish.	1. Aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar, xotin-qizlar, faxriylarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga jalb etish uchun davlat mulki hisoblangan sport inshootlarida va klublarida sport bilan shug‘ullanish jadvalini tasdiqlash. 2. Sport bilan shug‘ullanuvchi aholining sonini aniqlash va muntazam shug‘ullanuvchilarning hisobini yuritish. 3. Xususiy sport inshootlarida shug‘ullanuvchi aholining hisobini yuritish tizimini joriy etish.	2024-yil davomida	Mahalliy budjet mablag‘lar	Tuman hokimining o‘rinbosari R.Togayev, tuman Sport maktai (R.Abrayev), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev)

3.	Sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning, o‘quvchi va talabalarning umumiy sonini oshirish.	1. Mahallalarda sport bilan shug‘ullanish uchun shart-sharoitlarni yaratish hamda ulardagi mavjud sport inshootlarini zarur sport anjomlari va jihozlari bilan ta’minlash. 2. Mahalla va tuman kesimlarida tizimli ravishda sport tadbirlarini tashkil qilish.	2024-yil davomida Belgilangan reja asosida	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev), Termiz Agrotexnologiyalar va innovtsion rivojlanish instituti (A.Jurayev)
4.	Tumanda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ommaviy sport tadbirlarini ko‘tarinki ruhda o‘tkazish maqsadida har yili tuman hokimligi mahalliy budjeti parametrlarini shakllantirishda tuman sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasi uchun zarur mablag‘larni nazarda tutish.	1. Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining yagona kalendar rejasini o‘z vaqtida shakllantirish va tasdiqlash. 2. Tuman Sport boshqarmasining asoslangan hisob-kitoblariga ko‘ra tuman sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasi uchun zarur mablag‘lar ajratish. 3. Tasdiqlangan tuman sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari kalendar rejasining bajarilishini qat’iy nazoratga olish.	2024-yil may	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Sport maktabi (R.Abrayev)
5.	Tuman yoshlari o‘rtasida ommaviy sport musobaqa-larini ommalashtirish va ularning qiziqishlarin kuchaytirish maqsadida tajribali va taniqli sportchilar ishtirokida motivatsion uchrashuvlar tashkil etish tizimini joriy etish.	1. Motivatsion uchrashuvlar tashkil etiladigan tajribali va taniqli sportchilar ro‘yxatini shakllantirish. 2. Uchrashuvlar reja - grafigini ishlab chiqish va tasdiqlash. 3. Hududlarda tizimli ravishda motivatsion uchrashuvlar va mahorat saboqlari, ko‘rgazmali chiqishlarni tashkil etish.	Har yili aprel - may	-	Tuman Sport maktabi

6.	Tumanda olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) ishlarini takomillashtirish.	1. Mutaxassislarni jalb etgan holda olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha quyi bug‘inlardan boshlab bosqichma-bosqich musobaqalar tashkil etish orqali iqtidorli yosh sportchilarni saralab olish. 2. Saralab olish (seleksiya) yo‘li bilan aniqlangan iqtidorli yoshlar kelajakda olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha oliy mahoratli sportchi bo‘lib shakllanishi uchun ularni ixtisoslashtirilgan sport maktablariga yo‘naltirish. 3. Ta’lim muassasalarida ushbu yoshlarning o‘qish va shug‘ullanish jarayonini doimiy nazoratga olgan holda monitoring olib borish. 4. Mahallalar va tumanda olimpiya va jahon chempionlari, mashhur sportchilar hamda boshqa xalqaro darajadagi mutaxassislar ishtirokida yosh sportchilar uchun doimiy ravishda mahorat darslarini tashkil qilish.	Reja-jadval asosida	Mahalliy budjet mablag'lari	Tuman Sport maktabi

7.	Nogironligi bo‘lgan shaxslarni sport bilan shug‘ullanishga keng jalb qilish.	1. Paralimpiya sport turlarini yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish. 2. Ta’lim tashkilotlarida jismoniy imkoniyati cheklangan va nogironligi bo‘lgan yoshlarni sport bilan muntazam ravishda shug‘ullanishi uchun sport klublarini tashkil etish. 3. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni sportga jalb etish bo‘yicha sport inshootlariga olib boruvchi transport infratuzilmasini yaratish. 4. Hududlardagi barcha sport inshootlarining quvvatidan samarali foydalanish maqsadida paralimpiya sport turlari bo‘yicha qo‘shimcha sport va sog‘lomlashtirish seksiyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish. 5. Sport ta’lim muassasalarini paralimpiya sport turlari bo‘yicha maxsus sport anjomlari va jihozlari bilan ta’minlash.	2024-2025-yillar davomida	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev)
8.	Tumanda ommaviy sport musobaqalarini tizimli ravishda o‘tkazib borish.	Ommaviy sport musobaqalarini o‘tkazish yuzasidan quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash: 1. Musobaqalarda g‘olib va sovrindorlarni taqdirlash; 2. Sport musobaqalari bo‘lib o‘tadigan hududlar sport infratuzilmalarini talab darajasida tayyorlash; 3. Sport inshootlarini sport jihozlari bilan ta’minlash; 4. Tuman bosqichi g‘oliblari uchun hokim sovrinini ta’sis etish.	Har yili 1-fevral	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Sport maktabi (R.Abrayev)

9.	Aholining sog‘lom turmush tarzini yuritishi, muntazam ommaviy sport bilan shug‘ullanishi uchun tumanda sport inshootlari hamda yirik ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish.	Aholining keng qatlami, shu jumladan, yoshlar o‘rtasida sport turlari bo‘yicha “Hokim kubogi”, “Rahbar kubogi”, “Ayollar spartakiadasi” kabi sport musobaqalarini muntazam o‘tkazib borish.	2024-yildan boshlab doimiy	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Sport maktabi (R.Abrayev)
10.	Mahallalardagi yoshlar o‘rtasida sportning “Street sport”, “Work out”, turnikda tortilish, brusda o‘ynash kabi turlari bo‘yicha “Mahalla kubogi”ni tashkil qilish.	1. Musobaqa o‘tkazish tartibini ishlab chiqish. 2. Musobaqalarni doimiy o‘tkazib borish. 3. Musobaqa g‘olib va sovrindorlarini rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish.	Har yili	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Sport maktabi (R.Abrayev)
11.	Aholini, ayniqsa yoshlarni futbol bilan shug‘ullanishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.	1. Hududlarda (qishloq, mahalla, sektor, tuman) mini-futbol infratuzilmasini rivojlantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Mini-futbol bo‘yicha tashkil etilgan seksiyalar, trenerlar, mini-futbol maydonlari bo‘yicha ma’lumotlarni Internet jahon axborot tarmog‘idagi rasmiy sahifalarga joylashtirib borish.	2024-2025-yillar davomida	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev)

12.	Kurash milliy sport turini aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish.	1. Kurash milliy sport turi bo‘yicha tumanda “Kurash – bizning milliy boyligimiz” shiori ostida musobaqa va turnirlarni doimiy tashkil etib borish. 2. Tumandagi sport maktabida kurash milliy sport turi bo‘yicha seksiyalarni tashkil etish. 3. Kurash milliy sport turi bo‘yicha seksiyalarda iqtidorli yosh sportchilarni saralab olish (seleksiya) ishlarini amalga oshirish.	Har yili 2024-2025-yillar	Mahalliy budjet mablag‘lar	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Sport maktabi (R.Abrayev)
13.	Tumanda sportning yengil atletika turlari bilan shug‘ullanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.	1. Tumandagi mavjud stadionlarni hamda yengil atletika maydonlarini xatlovdan o‘tkazish. 2. Mavjud yengil atletika yo‘laklarini kapital ta’mirlash bo‘yicha 2024-2026- yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 3. Chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash uchun Viloyat hokimligiga kiritish.	2024-yil may 2024-yil iyun 2024-yil avgust	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov, tuman hokimining o‘rinbosari R.Togayev, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Sport maktabi (R.Abrayev)

14.	Tumandagi barcha davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida sport to‘garaklari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.	1. Jismoniy tarbiyaning innovatsion usullarini qo‘llash orqali yoshlarni jismoniy tarbiya hamda ommaviy sport bilan muntazam hug‘ullanishga jalb etib borish tizimini joriy etish. 2. Bolalarda sport bilan shug‘ullanishga sog‘lom, kuchli va ta’sirchan motivatsiyani shakllantirish hamda ularning muayyan ko‘rsatkichlari asosida qaysi sport bilan shug‘ullanishini aniqlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish. 3. Mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari va umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanish uchun zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta’minlash.	2024-yil dekabr	Mahalliy budjet mablag‘lari	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Qalandarov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmatov), tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev)
15.	Har bir umumiy o‘rta ta’lim maktabida futbol, basketbol, voleybol, gandbol va boshqa jamoaviy o‘yin turlari bo‘yicha jamoalar tuzish hamda muntazam ravishda maktab jamoalari o‘rtasida musobaqalar o‘tkazib borishni yo‘lga qo‘yish.	1. Sport turlari bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Maktab jamoalari o‘rtasida doimiy musobaqalar o‘tkazish. 3. Musobaqalar g‘olib va sovrindorlarini rag‘batlantirish va ularni professional sportga yo‘naltirib borish tizimini joriy qilish.	2024/2025-o‘quv yilidan boshlab	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev)

16.	Yozgi ta’til davrida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Yozgi ta’tilni sport bilan o‘tkazamiz” shiori ostida sportning futbol, voleybol, gandbol, boks, taekvondo, yengil atletika, suzish, kurash, karate, armrestling, kamondan o‘q otish, dzyudo bo‘yicha sport musobaqalari, o‘quv mashg‘ulotlari va tadbirlarini o‘tkazish.	1. Sport tadbirlarini o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdilash. 2. Tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi asosida sport tadbirlarini tashkil etish.	Har yili	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev)
17.	Viloyatdagi davlat sport-ta’lim muassasalarini chuqur bilim, tajriba va amaliy ko‘nikmalarga ega‘lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish.	1. Viloyatdagi barcha davlat sport-ta’lim muassasalari rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari, yo‘riqchi-uslubchilari hamda trenerlarini attestatsiyadan o‘tkazish. 2. Attestatsiya natijalari asosida davlat sport-ta’lim muassasalari rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari, yo‘riqchi-uslubchilari hamda trenerlarini o‘z lavozimiga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqish. 3. Davlat sport-ta’lim muassasalaridagi bo‘sh lavozimlarni chuqur bilim, tajriba va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish choralarini ko‘rish.	2024-yil sentabr	-	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev)

18.	Tumandagi davlat sport-ta’lim muassasalarini chuqur bilim, tajriba va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish.	1. Tumandagi barcha davlat sport-ta’lim muassasalari rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari, yo‘riqchi-uslubchilari hamda trenerlarini attestatsiyadan o‘tkazish. 2. Attestatsiya natijalari asosida davlat sport-ta’lim muassasalari rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari, yo‘riqchi-uslubchilari hamda trenerlarini o‘z lavozimiga muvofiqligi masalasini ko‘rib chiqish. 3. Davlat sport-ta’lim muassasalaridagi bo‘sh lavozimlarni chuqur bilim, tajriba va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan to‘ldirish choralarini ko‘rish.	2024-yil sentabr	-	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev)
19.	Tumandagi mavjud sport inshootlarini xatlovdan o‘tkazish.	1. Xatlov o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh shakllantirish. 2. Tumandagi mavjud davlat sport inshootlarini xatlovdan o‘tkazish. 3. Xatlov natijalari yuzasidan sport obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash manzilli dasturiga kiritish maqsadida tuman hokimligiga taklif loyihasini kiritish. 4. Sport inshootlarining zarur moddiy-texnik baza bilan ta’minlanganlik holatini monitoring qilib boorish.	2024-yil oktabr	-	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev)
20.	Tumanda yoshlar uchun olis hududlarda va qishloqlarda 1 ta universal, stritbol va vorkaut sport maydonchasini barpo etish.	1. Barpo etiladigan sport inshootlarining loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash. 2. Sport inshootlarining belgilangan muddatlarda barpo etilishi va foydalanishga topshirilishini ta’minlash.	2024-yil dekabr	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev)

21.	Tumandagi sport maktablarini zamonaviy kompyuter jihozlari bilan ta’minlash.	1. Sport maktablarining zarur kompyuter texnikasi va jihozlar bilan ta’minlanganlik holatini o‘rganish. 2. O‘rganish natijalari bo‘yicha zarur bo‘ladigan zamonaviy kompyuter texnikasi va jihozlarini xarid qilish bo‘yicha tuman Sport boshqarmasiga taklif kiritish. 3. Xarid qilingan zamonaviy kompyuter texnikasi va jihozlarini sport maktablariga yetkazib berish.	2024-yil sentabr	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman Sport maktabi (R.Abrayev)
22.	Tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktablari, professional va oliy ta’lim tashkilotlarini sport jihozlari va anjomlari bilan ehtiyojga ko‘ra ta’minlash hamda moddiy-texnik bazani mustahkamlash.	1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, professonal va oliy ta’lim tashkilotlarining sport jihozlari va anjomlariga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish. 2. O‘rganish natijalari bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari, professonal va oliy ta’lim tashkilotlarini sport jihozlari va anjomlari bilan ta’minlash.	2024-2025-yillar	Ijrochilar mablag‘lari	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (I.Kenjayev), Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsoin rivojlanish instituti (A.Jurayev), tuman Sport maktabi (R.Abrayev)

23.	“Uchqizil” suv omborida baydarka va kanoeda eshkak eshish xalqaro sport bazasini tashkil qilish, uning samarali faoliyat yuritishini yo‘lga qo‘yish.	1. Baydarka va kaneda eshkak eshish xalqaro sport bazasini Xitoy davlatining tajribasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha individual loyihani ishlab chiqish. 2. Loyihada sport bazasi va uning tarkibiy tuzilmalari uchun zarur bino va inshootlar, suzish havzasi, oshxona hamda yotoqxona kabi binolar barpo etishni nazarda tutish. 3. Loyihani 2025-yilgi Surxondaryo viloyatining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish. 4. Sport bazasi va uning tuzilmasini zarur texnika va inventarlar bilan jihozlash. 5. Qurilish ishlarini yakunlash, foydalanishga topshirilishi va qabul qilinishini ta’minlash.	2025-yil davomida	Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida ajratilgan mablag‘lar	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (B.Djurayev, R.Togayev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmetov), tuman Sport maktabi (R.Abrayev), tuman Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (O.Saitov)
24.	Tuman Sport maktabining yaroqsiz holatga kelib qolgan suv ta’minoti inshootini ta’mirlash.	1. Yaroqsiz holatga kelib qolgan suv ta’mnoti inshootining loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish. 2. Suv ta’minoti inshootining belgilangan tartibda ta’mirlanishi va foydalanishga topshirilishini ta’minlash.	2024-yil sentabr	Davlat budjeti mablag‘lari	Tuman hokimining o‘rinbosarlari (B.Djurayev, R.Togayev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O‘.Ishmetov), tuman Sport maktabi (R.Abrayev)

Termiz tumani hokimi **SH.X.Nazarov**